

**Virusologiya ITI Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki
korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlarni
rag'batlantirish tartibi to'g'risidagi**

NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1.Ushbu Nizom "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonun hamda Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 31 dekabrdagi "Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarni rag'batlantirish tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi 829-sen Qaroriga muvofiq korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlarni rag'batlantirish tartibini belgilaydi.

2.Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

korrupsiya – shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish;

-korrupsiyaga oid huquqbuzarlik – korrupsiya alomatlariga ega bo'lgan, sodir etilganligi uchun qonunchilikda javobgarlik nazarda tutilgan qilmish;

-korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqacha tarzda ko'maklashgan xodimlar –Virusologiya ITI xodimlari;

-korrupsiyaga qarshi kurashishda faol ishtirok etish – tayyorgarlik ko'rileyotgan, sodir etilayotgan yoki sodir etilgan korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar berish yoxud yordam ko'rsatish;

- korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashish
– Institutning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Siyosati", "Odob-axloq qoidalari", Institutda manfaatlar to'qnashuvini boshqarish to'g'risidagi Nizom", Institut xodimlari tomonidan xizmat safarlari, xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlar munosabati bilan olinishi mumkin bo'lgan sovg'a qiymati, shuningdek uni tasarruf etish tartibi to'g'risidagi Nizom" kabi ichki me'yoriy hujjatlar va sohaga oid qonunchilik talablari xodimlar tomonidan buzilganda, o'tkazilayotgan xizmat tekshiruvi jarayonida bevosita ko'maklashish;

maxsus komissiya - korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarni rag'batlantirish masalasini ko'rib chiqish uchun institut huzurida tuzilgan komissiya.

korrupsiyaga oid ma'muriy huquqbuzarliklar -O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 611, 1931 1932 va 1934-moddalarida nazarda tutilgan huquqbuzarliklar;

korrupsiyaga oid jinoyatlar – O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi 167-moddasining ikkinchi qismi "g" bandi, 168-moddasining uchinchi qismi "v" bandi, 1929

va 19210, 205, 209-214-moddalari, 243-moddasida nazarda tutilgan jinoyatlarni mansab mavqeidan foydalangan holda sodir etish hamda 301-moddasida ko'rsatilgan jinoyatlar. aloqa kanallari – Institut tizimida mumkin bo'lgan qonunbuzarliklar, shu jumladan, odob-axloq qoidalari, manfaatlar to'qnashuvi va korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risida xodimlar tomonidan xabar berish mumkin bo'lgan aloqa kanallari.

3.Institutda mumkin bo'lgan qonunbuzarliklar, shu jumladan, odob-axloq qoidalari, manfaatlar to'qnashuvi va korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risida quyidagi aloqa kanallari orqali ma'lumot berilishi ta'minlanadi:

- Ishonch telefon — +99897-604-24-80; +99871-231-18-55
- rasmiy veb-sayti —<https://riv.uz/uz/korrupsiyaga-qarshi-kurashish/>
- feysbukdagi sahifasi - <https://www.facebook.com/profil.php?Id=61561001801697&mibextid=ZbWkwL>
- Telegram bot — <https://t.me/+0FYSa5c14txhZWQY>
- bevosita Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'limiga;
- Institutning Odob-axloq komissiyasi raisiga.

2-bob. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlarni rag'batlantirish asoslari va turlari

4.Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlar quyidagi asoslardan biri mavjud bo'lganda bir martalik pul mukofoti bilan rag'batlantiriladi:

- fuqarolar yoki fuqaroligi bo'lмаган shaxslar tomonidan xodimlarga nisbatan pora taklif qilgan shaxs haqida yoki o'zlariga ma'lum bo'lgan boshqa xodimlarning korrupsiyaga oid huquqbuzarligi haqida aloqa kanallari orqali xabar berishi natijasida bunday huquqbuzarlik fosh etilishi;
- nodavlat tijorat tashkilotining yoki davlat tashkilotining yoxud fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organining xizmatchisi tomonidan xodimga nisbatan pora berishni taklif etgan yoki pora talab qilgan shaxs haqida bergan xabari asosida yoxud o'ziga ma'lum bo'lgan korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida bevosita o'z rahbariga bergan xabari asosida huquqbuzarlik fosh etilishi.

5. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlar Maxsus komissiya taqdimnomasi asosida quyidagi miqdordagi bir martalik pul mukofoti yoki sovg'a bilan rag'batlantiriladi: korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarga esdalik sovg'a qiymati - bazaviy hisoblash miqdorining ikki baravarigacha;

- korrupsiyaga oid ma'muriy huquqbuzarlik haqida berilgan xabar uchun - bazaviy hisoblash miqdorining uch baravari miqdorida;
- pora summasi yoki yetkazilgan zarar yoxud o'zlashtirilayotgan (o'zlashtirilgan) mulk haqida berilgan xabar uchun - bazaviy hisoblash miqdorining o'ttiz baravarigacha bo'lsa:

ijtimoiy xavfi katta bo‘lмаган jinoyat uchun — bazaviy hisoblash miqdorining besh baravari miqdorida;

uncha og‘ir bo‘lмаган jinoyat uchun — bazaviy hisoblash miqdorining yetti baravari miqdorida;

og‘ir jinoyat uchun — bazaviy hisoblash miqdorining o‘n baravari miqdorida;

o‘ta og‘ir jinoyat uchun — bazaviy hisoblash miqdorining o‘n besh baravari miqdorida; pora summasi yoki yetkazilgan zarar yoxud o‘zlashtirilayotgan (o‘zlashtirilgan) mulkning qiymati bazaviy hisoblash miqdorining o‘ttiz baravaridan yuz baravarigacha bo‘lsa: ijtimoiy xavfi katta bo‘lмаган jinoyat uchun-bazaviy hisoblash miqdorining o‘n baravari miqdorida;

uncha og‘ir bo‘lмаган jinoyat uchun — bazaviy hisoblash miqdorining o‘n besh baravari miqdorida;

og‘ir jinoyat uchun — bazaviy hisoblash miqdorining yigirma baravari miqdorida;

o‘ta og‘ir jinoyat uchun — bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh baravari miqdorida;

pora summasi yoki yetkazilgan zarar yoxud o‘zlashtirilayotgan (o‘zlashtirilgan) mulkning qiymati bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan ko‘p bo‘lsa, quyidagi foiz hisobida hisoblanadi:

ancha miqdor uchun — pora summasi yoki yetkazilgan zarar yoxud o‘zlashtirilayotgan (o‘zlashtirilgan) mulk qiymatining o‘n besh foizi miqdorida;

ko‘p yoki juda ko‘p miqdor uchun — pora summasi yoki yetkazilgan zarar yoxud o‘zlashtirilayotgan (o‘zlashtirilgan) mulk qiymatining o‘n foizi miqdorida.

6.Xodim korrupsiyaga qarshi kurashishga munosib hissa qo‘sghanligi uchun qonunchilik hujjatlariga muvofiq davlat mukofotiga ham tavsija etilishi mumkin.

7.Quyidagi qarorlardan biri qabul qilingandan so‘ng rag‘batlantirish masalasi ko‘rib chiqiladi:

- korrupsiyaga oid huquqbazarliklar to‘g‘risidagi xabar Maxsus komissiya tomonidan ko‘rib chiqilib, mazkur xabar tasdiqlanganda;

- korrupsiyaga oid huquqbazarliklar bo‘yicha jinoyat ishlari yuzasidan sudning ayblov hukmi yoki qarori qonuniy kuchga kirganda.

8.Korrupsiyaga oid huquqbazarlik haqida xabar bergen yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan xodimlarni rag‘batlantirish bilan bog‘liq xarajatlar Institutning byudjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi.

3-bob. Korrupsiyaga oid huquqbazarlik haqida xabar bergen yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan xodimlarni rag‘batlantirish masalasini ko‘rib chiqish tartibi

9.Korrupsiyaga oid huquqbazarlik haqida xabar bergen yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan xodimlarni rag‘batlantirish masalasi Nizomning 1-ilovasida keltirilgan Maxsus komissiya tomonidan ko‘rib chiqiladi.

10.Korrupsiyaga oid huquqbazarlik haqida xabar bergen yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan xodimlarni rag‘batlantirish masalasi Maxsus

komissiyaning taqdimnomasi asosida amalga oshiriladi. Quyidagilar Maxsus komissiyaning asosiy vazifalari hisoblanadi:

- Institutda korrupsiyaning barcha ko'rinishlariga murosasiz munosabatni shakllantirish hamda ushbu sohada davlat siyosatining samarali amalga oshirilishini ta'minlash;
- korrupsiyaga oid jinoyatlarning barvaqt profilaktikasini ta'minlash, bunga imkon berayotgan shart-sharoitlarni o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etish;
- xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashishdagi faolligini yanada oshirish hamda ularni ushbu sohaga qo'shayotgan hissasi uchun munosib taqdirlash;
- soha xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashishdagi faolligini yanada oshirish hamda ularni ushbu sohaga qo'shayotgan hissasi uchun munosib taqdirlash;
- qonunbuzarliklar haqida vijdonan xabar bergen xodimlarga nisbatan ishdan bo'shatish, lavozimdan tushirish, kamsitish, ta'qib qilish kabi tazyiqlarga yo'l qo'yilmaslik va taqdim etilgan ma'lumotlar boshqa xodimlarga yoki uchinchi shaxslarga ularning roziligidiz oshkor qilinmaslikni nazorat qilish.

11.Rag'batlantirish qonuniylik,adolatlilik, xolislik, oshkorlik, xodimlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etish hamda ularning shaxsiy xavfsizligini ta'minlash va xohish-istikclarini hisobga olish prinsiplari asosida amalga oshiriladi.

12.Ushbu Nizom talablari qonunchilik hujjatlariga muvofiq korrupsiyaga oid jinoyatlar haqida o'ttiz sutka mobaynida o'z ixtiyori bilan arz qilgan yoki korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni bevosita sodir etgan xodimlarga nisbatan tatbiq etilmaydi:

13.Rag'batlantirish bir martalik pul mukofoti, tashakkurnoma yoki esdalik sovg'a shaklida belgilanadi.

14.Taqdimnomaga rag'batlantirish uchun asos bo'luvchi quyidagi hujjatlar ilova qilinadi: ro'yxatdan o'tgan ariza nusxasi yoki og'zaki berilgan xabarni tasdiqlovchi ma'lumotlar; sudning qonuniy kuchga kirgan qarori yoki ayblov hukmi nusxasi; korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergen yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlarning shaxsni tasdiqlovchi hujjatlar.

15.Maxsus komissiya taqdimnomasi va unga ilova qilingan assoslovchi hujjatlar rag'batlantirish uchun asos yuzaga kelgan kundan boshlab uch ish kuni ichida Institut rahbari buyrug'i asosida amalga oshiriladi.

16.Maxsus komissiya tomonidan rag'batlantirishga oid hujjatlar olingan kundan boshlab besh ish kuni ichida taqdim etilgan hujjatlarning to'liqliligi, asosliligi hamda ushbu Nizom talablari uchun asos bo'lgan holatlar bartaraf etilgan taqdirda, tegishli hujjatlar ushbu Nizom talablari asosida rag'batlantirish uchun qayta taqdim etilishi mumkin.

17.Rag'batlantirish uchun taqdim etilgan hujjatlar to'liq emasligi hamda ushbu Nizom talablari uchun asos bo'lgan holatlar bartaraf etilgan taqdirda, ikki ish kuni ichida qaytariladi. Qaytarilish uchun asos bo'lgan holatlar bartaraf etilgan taqdirda, tegishli hujjatlar ushbu Nizom talablari asosida rag'batlantirish uchun qayta taqdim etilishi mumkin.

18.Rag'batlantirish bo'yicha Maxsus komissiya tomonidan chiqarilgan qarorlar uch ish kuni ichida ijro uchun yuboriladi.

19.Maxsus komissiyaning raisi komissiya qarori qonuniyligi, xolisligi hamda xodimlarning shaxsiga oid ma'lumotlar oshkor etilmasligi uchun shaxsan javobgar hisoblanadi.

20.Maxsus komissiyaning qarori asosida bir ish kuni ichida bir martalik pul mukofoti yoki esdalik sovg‘asi bilan taqdirlash haqida ichki buyruq chiqaradi.

Bir martalik pul mukofoti xarajatlar smetasiga o‘zgartirish kiritilgandan so‘ng besh ish kuni ichida xodimlarning shaxsiy hisobvarag‘iga o‘tkazib beriladi, esdalik sovg‘asi esa qonunchilik hujjatlariga muvofiq sovg‘a qilinadigan buyum xarid qilingandan so‘ng uch ish kuni ichida topshiriladi.

21.Tashakkurnoma shaklida rag‘batlantirish masalasi Sog‘liqni saqlash vaziri tomonidan ko‘rib chiqiladi.

4-bob. Yakunlovchi qoidalar

22.Rag‘batlantirilgan korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan xodimlarning reyestri Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘limi tomonidan yuritiladi.

23.Korruptsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korruptsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan xodimlar, ularning oila a’zolari va yaqin qarindoshlarining xavfsizligini ta’minalash maqsadida ular haqidagi ma’lumotlar qonunchilik hujjatlarida belgilangan talablar asosida oshkor etilishi mumkin.

24.Korruptsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korruptsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan xodimlar, ularning oila a’zolari va yaqin qarindoshlarini himoya qilish qonunchilik hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

25.Korruptsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korruptsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan xodimlarni rag‘batlantirish bilan bog‘liq nizolar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

26.Ushbu Nizom talablari buzilganligida aybdor bo‘lgan xodimlar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar.

*Virusologiya ITida Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik
haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi
kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan
xodimlarni rag'batlantirish tartibi to'g'risidagi
Nizomga ilova*

**Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga
qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlarni rag'batlantirish
bo'yicha maxsus komissiya tarkibi**

T/p	Maxsus komissiya a'zosining F.I.Sh	Maxsus komissiya a'zosining lavozimi
1.		
2.		
3.		
4.		
5.		
6.		
7.		